



MARKAZIY OSIYODA ILK PEDAGOGIK TASAVVURNING BAYON ETILISHI.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti pedagogika
yo'nalishi 4-kurs talabasi **Dehqonova Iroda.***

Anotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning paydo bo'lishi va rivozlanishi tarixi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik tasavvur, Markaziy Osiyo mutafakkirlari, oltin fond, monografiya, milliy ta'lim tizimi, turkiy tillar, ijtimoiy ma'daniy hayot.

Har bir ijtimoiy tuzumda insoning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlar va jam'iyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi. Pedagogika tarixi qadim zamonlardan hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyasini taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keladi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, mustaqillik tufayli ko'hnada Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keldi. Axloqan pok va etuk insonlarni tarbiyalashning asosini muvaffaqiyatli hal etishda xalqimizning ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy merosi va tarixiy-tarbiyaviy tajribalarini o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini ta'lim-tarbiya ishlariga tadbiq etishning ahamiyati kattadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti A.I. Karimovning quyidagi so'zlari alohida e'tiborga loyiqdir: «Naslu nasabini bilmagan kishi inson sanalmaydi. Necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil



etishga urindilar. Ammo biz hurriyatni orzu etishdan, hurriyat uchun ku rash ish d ancharchamadik. Maslagim izni naslu nasabim izni doimo yodda saqladik. Ulug' bobokalonlarimiz ruhiga, bashariyat tarixi va m adaniyati xazinasiga katta hissa qo'shgan ulug' ajdodlarim izga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo'lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongidan m ustahkam joy olishi - bu ham yangi zamonning muhim xususiyatidir

Dunyoning ilg'or mamlakatlari uchun kundan-kun ulkan ilmiy meros hamda ta'lim-tarbiyaning o'zaro bir-birini to'ldiruvchi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mavjud ma'naviy-ma'rifiy salohiyatni muvofiqlashtirish yetakchi o'rinni egallamoqda. Boy madaniyat va qadimiy tarixni, ma'naviy va milliy merosning haligacha o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni har tomonlama chuqur tadqiq qilish va ularning targ'ibotiga alohida e'tibor qaratish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ilm-fanida aynan Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qimmatli manbalarni o'rganishga asoslangan loyihalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi kuzatilmoqda. Ta'lim-tarbiya mazmunidagi beqiyos manbalar YUNESKOning Madaniy meros ro'yxatidan o'rin egallagan. Shuningdek, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Misr, Hindiston, Eron, Turkiya kabi xorijiy mamlakatlardagi kutubxonalarning «oltin fondi»da ko'plab qo'lyozma shaklidagi Sharq durdona asarlari saqlanmoqda. Shunday bo'lsa-da, Markaziy Osiyo xalqlari bebaho merosining bugungi jahon taraqqiyotidagi ulushi bor ko'lami bilan hali ham to'liq o'rganilmagan va shu tufayli ma'naviy merosning dunyo ahli uchun deyarli ochilmagan jihatlarini baholash zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan bir davrda ulug' mutafakkirlarning ma'naviy merosi asosida yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish muhimdir. Chunki «Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-



ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak... Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak». Ushbu yondashuv ta'lim tizimining yuksak cho'qqilarga chiqishiga amaliy dasturdir. 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mazmunida «Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat» konsepsiyasini amalga oshirish hamda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning uchun fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tashkil etish, xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga tayanish, ilmiy-nazariy va kompleks tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. IX-X asrdan boshlab Movarounnahr mintaqasi tarkibiga Samoniylar (875-999), Qoraxoniylar (927-1211) va keyinchalik Xorazmshohlar (1097-1231) singari davlatlar kirgan. Xuroson hududi esa Tohiriylar (821-873), Saffoviylar (867-903), Samoniylar (875-999), G'aznaviylar (977-1030) va keyinchalik Saljuqiylar (1038-1308), Xorazmshohlar (1097-1231) tasarrufida bo'lgan. Yuqoridagi nomlari tilga olingan davlatlarning vujudga kelishi mahalliy xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratdi. Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan mahalliy hukmdor davlatlar hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Bu taraqqiyot XIII asr boshlarida mo'g'ullar bosqiniga uchrab bir oz muddat to'xtadi. Ushbu bosqinlar natijasida, Markaziy Osiyo alloma va mutafakkirlari, ilm ahli o'z oilalari bilan ona yurtlarini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Binobarin, ayrimlari yurt ozodligi yo'lida jonlarini fido qilgan bo'lsalar, yurtidan uzoqda bo'lganlari o'z asarlarida yurt dardini madh qilib kuylaganlar. Ushbu davr allomalari arab, fors va turkiy tillarda ijod qildilar. Asarlarida diniy va dunyoviy qarashlarni yoritib, insonning kamoloti va kelajagi haqida qayg'urdilar. Nafsnii tiyish, manmanlik va takabburlikka berilmaslik, ilm egallash, ustoz va shogird munosabati, ajdodlar merosiga sadoqat, ota-ona va



qavm-qarindoshga hurmat, oila madaniyati, vatanparvarlik hamda insonparvarlik g'oyalarini tarannum etdilar. XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonga tegishli ijtimoiy madaniy hayot borasida Herman Vamberi «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobida «Ilm daraxtining asosi Makkada-yu, ammo hosili Xurosonda pishadi» degan arab maqolini misol keltirib, Movarounnahr va Xuroson mo'g'ullar tajovuziga duch kelguncha Osiyoda yetakchi o'rin egallaganligini ta'kidlab o'tadi. Ijtimoiy va madaniy hayot Xurosonning Hirot, Balx, Sheroz, Nishopur, Isfaxon, Ray, Hamadon, Jurjon, Qazvin va Marv shaharlarida, Movarounnahrning Jand, Xo'jand, Xiva, Kat, Gurganj, Buxoro, Samarqand va Termiz shaharlarida rivojlangan edi. Davlat ishlari va mahalliy munosabat tili fors, turkiy va turkman tillarida olib borilgan. Ushbu shaharlarda fozillar to'planib ilm-u madaniyat bobida o'zaro musobaqa qilishgan, madrasalar esa uzoqdan kelgan talabalar bilan to'lgan. «Movarounnahr shaharlari balog'at, sarf va nahv, she'r hamda nafosatda ilgari ketgan edi»– deydi, Vamberi. XIII asrlarga kelib Xorazmshohlar idora usulidan ustun turuvchi Chingizxon («Yasoq») qonunlari ostida qariyb bir asrga qadar davom etgan istilolar Chingizxon hukmronligi davrida va uning vafotidan keyin ham davom etdi. Natijada qirqqa yaqin davlat mo'g'ullar tomonidan bosib olindi.

Shu jumladan. Markaziy Osiyo hududi 1219 - 1221 yillarda istilo qilindi. «Shu vaqtdan boshlab ularning ma'naviy hayoti qozilik ishlari-yu, tasavvuf, dinga astoydil intilishdan iborat bo'lib qoldi. Bu baxtsizlikning bosh sababi mo'g'ullar shahardagi eron irqini o'ldirib, madaniyatga xizmat etadigan va savdo-sanoat bilan shug'ullanadigan, xalqni kamaytirib yubordi. Saljuqiylar davrida sof turkiy yerlarda xalq tili forscha bo'lsa-da, mo'g'ullar davriga kelib madaniy hayotdan forscha ruhiyat yo'qolib bordi.

Xulosa qilib aytganda, XII asr oxiri va XIV asr boshlarida Markaziy Osiyo allomalarining ilmiy merosini o'rganish vazifasining kun tartibiga qo'yilishi ta'lim-



tarbiya jarayonida juda ko'plab islohotlar qilinishi, ta'lim muassasalarida bugungi kun taraqqiyotini milliy ruhda tashkil etilishiga zamin yaratdi. Chunki, maktab va madrasalar madaniyat va ta'lim markazi bo'lish bilan bir qatorda jamiyat rivojiga uning marifiy taraqqiyotiga yetarlicha o'z tasirini ko'rsatgan. Ko'pgina mudarrislar va o'z davrining yetakchi olimlari dunyoviy va diniy ilmlar uyg'unligida jamiyatning jadal rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar. Falsafa, matematika, astronomiya, kimyo va tibbiyot kabi bir qator oqilona bilimlarni qamrab olgan madrasalar va o'quv dasturlarida axloq me'yorlarini o'qitishga ham katta e'tibor berilgan. Bugungi kunda ham bu fanlar o'z qiymatini yo'qotgan emas. Shu o'rinda takidlab o'tish joizki, XII asr oxiri va XIV asr boshlarida Xuroson va Movarounnahr mintaqasi ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar va bu jarayonlarning Amir Temur va Temuriylar sulolasi davriga kelib o'z taraqqiyotining yuqori darajaga ko'tarilishi Markaziy Osiyo aholisining ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga tub burilish yasadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Markaziy Osiyoda XII-asr oxiri XIV-asr boshlarida pedagogik fikrlar rivoji."Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna.
2. Academia.edu
3. Òrta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. M. Xayrullayev va b. tax Ost. Toshkent, "FAN" 1997
4. Hoshimov K. va b. Òzbek pedagogikasi antalogiyasi 2-qism. T: "Òqituvchi". 1996
5. Hoshimov K va b Pedagogika tarixi T: "Òqituvchi" 1996.
6. Karimov I.A Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi Toshkent, "Ma'naviyat", 2006.